

**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA IJODIY
TOPSHIRIQLAR ORQALI O‘QUVCHILARNI FAOLLASHTIRISH**

**Parpiyev Odil Olimovich, Qo‘qon universiteti
Filologiya kafedrası dotsent v.b.**

odilparpiyev71@gmail.com, tel.: +998996193971

ORCID: 0000-0002-7398-7155

Mamadaliyeva Muxaramoy Islomjon qizi,

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21169928>

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida ijodiy topshiriqlardan foydalanish orqali o‘quvchilar faolligini oshirish masalasi yoritilgan. O‘qish savodxonligi darslari o‘quvchilarning nafaqat ravon va ongli o‘qish ko‘nikmalarini, balki mustaqil fikrlash, tasavvur, og‘zaki va yozma nutq hamda ijodiy yondashuvini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Maqolada matn asosida rasm chizish, hikoyani davom ettirish, qahramonga maktub yozish, rol o‘ynash, klaster, INSERT va boshqa ijodiy topshiriqlarning ta’limiy imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, ijodiy topshiriqlarni interfaol metodlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan uyg‘unlashtirish o‘quvchilarning darsdagi faolligini oshirishga xizmat qilishi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: ijodiy topshiriq, boshlang‘ich ta’lim, o‘qish savodxonligi darsi, o‘quvchi faolligi, nutqni rivojlantirish, motivatsiya, faol tafakkur, kommunikativ kompetensiya, interfaol metod, AKT.

Аннотация

В данной статье освещается вопрос повышения активности учащихся посредством использования творческих заданий на уроках читательской грамотности в начальных классах. Уроки читательской грамотности имеют важное значение не только для формирования у учащихся навыков беглого и осознанного чтения, но и для развития самостоятельного мышления, воображения, устной и письменной речи, а также творческого подхода.

В статье проанализированы образовательные возможности таких творческих заданий, как рисование на основе текста, продолжение рассказа, написание письма герою произведения, ролевая игра, кластер, INSERT и другие виды заданий. Кроме того, обосновано, что интеграция творческих заданий с интерактивными методами и информационно-коммуникационными технологиями способствует повышению активности учащихся на уроке.

Ключевые слова: творческое задание, начальное образование, урок читательской грамотности, активность учащихся, развитие речи, мотивация, активное мышление, коммуникативная компетенция, интерактивный метод, ИКТ.

Abstract

This article examines the issue of increasing pupils' engagement through the use of creative tasks in primary school reading literacy lessons. Reading literacy lessons play an important role not only in developing pupils' fluent and conscious reading skills, but also in

fostering independent thinking, imagination, oral and written speech, and a creative approach.

The article analyzes the educational potential of such creative tasks as drawing based on a text, continuing a story, writing a letter to a character, role-playing, clustering, INSERT, and other types of creative activities. It also substantiates that integrating creative tasks with interactive methods and information and communication technologies contributes to increasing pupils' activity in the lesson.

Keywords: creative task, primary education, reading literacy lesson, pupil engagement, speech development, motivation, active thinking, communicative competence, interactive method, ICT.

Boshlang'ich sinflarda o'qish savodxonligi darslari o'quvchilarning og'zaki savodxonligini shakllantirish, matnni tushunish, obrazli fikrlash, estetik did va nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar matnni quruq o'qishdan ko'ra, uni tasavvur qilish, qahramonlar bilan bog'lash, voqealarni davom ettirish va o'z fikrini ifodalash orqali yaxshiroq o'zlashtiradilar. Shu sababli o'qish savodxonligi darslarida ijodiy topshiriqlardan foydalanish ta'lim jarayonini jonlantiradi va o'quvchini faol ishtirokchiga aylantiradi.

O'qish savodxonligi darslarining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda ongli, to'g'ri, ifodali va ravon o'qish ko'nikmalarini shakllantirishdir. Biroq bu jarayon faqat matnni o'qitish va savol-javob bilan cheklanib qolmasligi kerak. O'quvchi matn mazmunini anglay olishi, qahramonlar xatti-harakatiga munosabat bildirishi, voqealar rivojini taxmin qilishi, matndan xulosa chiqarishi lozim. Boshlang'ich ta'limda o'qish savodxonligi darslarini tashkil etishga oid metodik manbalarda ham matn ustida ishlashda o'quvchining mustaqil fikrlashi va nutqiy faolligini rivojlantirish muhim vazifa sifatida ko'rsatiladi [2].

Ijodiy topshiriqlar o'quvchilarni matn mazmunini chuqurroq anglashga, obrazlarni tasavvur qilishga va o'z fikrini erkin bayon etishga undaydi. Bunday topshiriqlar orqali bola faqat tayyor bilimni qabul qilmaydi, balki uni qayta ishlaydi, talqin qiladi va o'ziga xos shaklda ifodalaydi. Masalan, o'quvchidan hikoyaga yangi sarlavha topish, ertakni davom ettirish, qahramonga maktub yozish yoki voqeani boshqa yakun bilan tugatish so'ralganda, u matn ustida faol fikrlashga majbur bo'ladi.

Ijodiy topshiriqlarning muhim xususiyati shundaki, ular o'quvchining tasavvuri, nutqi, tafakkuri va hissiy munosabatini birgalikda harakatga keltiradi. Kichik yoshdagi o'quvchilar psixologiyasiga oid tadqiqotlarda ham bu davrda bolalarda obrazli fikrlash, qiziqish, taqlid, o'yin va ijodiy faoliyatga moyillik kuchli bo'lishi ta'kidlanadi [5]. Demak, o'qish savodxonligi darslarida ijodiy topshiriqlarni qo'llash bolalarning yosh xususiyatlariga mos keladi.

Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida ijodiy topshiriqlarning turli shakllaridan foydalanish mumkin. Jumladan, matn asosida rasm chizish, asar qahramonlariga maktub yozish, hikoya yoki ertakni davom ettirish, asar uchun yangi sarlavha topish, qahramonlarni rollarga bo'lib ijro etish, dramatizatsiya qilish, muqobil yakun yaratish, klaster tuzish, “Aqliy hujum”, INSERT kabi metodlardan foydalanish shular jumlasidandir. Bu topshiriqlar o'quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi, ularni erkin fikrlashga va o'z munosabatini bildirishga o'rgatadi.

Ijodiy topshiriqlar orqali o'quvchilar faolligini oshirishda motivatsiya muhim o'rin tutadi. Agar topshiriq o'quvchi uchun qiziqarli bo'lsa, u dars jarayonida faol qatnashadi.



Masalan, 1-sinfda “O’rmon” mavzusini o’rganishda o’qituvchi o’quvchilarga o’rmon rasmi ko’rsatib, “O’rmonda nimalar bor?” degan savol bilan murojaat qilishi mumkin. O’quvchilar daraxt, qush, hayvon, gul, daryo kabi so’zlarni aytadilar va ular asosida klaster tuzadilar. Bunday topshiriq oddiy ko’rinsa-da, o’quvchilarni mavzuga jalb qiladi, ularning lug’at boyligini faollashtiradi va darsga qiziqish uyg’otadi.

O’qish savodxonligi darslarida ijodiy topshiriqlar faol tafakkurni rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Masalan, 2-sinfda “Suhrobjon va Mikrobjon” hikoyasi o’rganilayotganda o’quvchilarga hikoyani qismlarga ajratish, har bir qismga sarlavha qo’yish, voqealar rivojini taxmin qilish, “Agar sen hikoyadagi qahramon Suhrobjon o’rnida bo’lsang, qanday yo’l tutarding?” kabi savollar berish mumkin [4]. Bunday topshiriqlar bolani matnni oddiy eslab qolishga emas, balki tahlil qilishga, solishtirishga va xulosa chiqarishga yo’naltiradi.

Ijodiy topshiriqlar kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, 3-sinfda “Tez yordam – yordamga shay” mavzusidagi matn o’rganilganda o’quvchilar juftlikda savol-javob qiladilar, guruhda “Tez yordam nima uchun muhim?” degan savol yuzasidan fikr almashadilar. Bunday topshiriqlar orqali o’quvchilar suhbatdoshini tinglash, savol berish, o’z fikrini asoslash va boshqalarning fikriga munosabat bildirishni o’rganadilar. Interfaol metodlar haqidagi manbalarda ham guruhli va juftlikdagi ishlar o’quvchilarda muloqot madaniyati hamda hamkorlik ko’nikmalarini rivojlantirishi qayd etiladi [7].

Nutqni rivojlantirishda ham ijodiy topshiriqlarning o’rni katta. Masalan, 2–3-sinflarda “Mening oilam”, “Mening do’stim”, “Sevimli kitobim” kabi mavzularda 4–5 gapdan iborat kichik matn tuzish, og’zaki hikoya qilish yoki rasm asosida gaplar tuzish o’quvchilarning so’z boyligini kengaytiradi. Bunday mashqlar bolaning og’zaki va yozma nutqini rivojlantirish bilan birga, fikrni izchil bayon qilishga ham o’rgatadi.

Ijodiy topshiriqlarni interfaol metodlar bilan uyg’unlashtirish dars samaradorligini yanada oshiradi. Masalan, “Klaster” usuli matn mazmunini tizimlashtirishga yordam beradi. O’quvchilar markazga asar nomini yozib, uning atrofida qahramonlar, voqealar, asosiy g’oya, xulosa kabi tushunchalarni joylashtiradilar. “Rol o’ynash” usuli esa obrazni jonlantirish, qahramon kayfiyatini his qilish va ifodali nutqni rivojlantirishga xizmat qiladi. INSERT usuli orqali esa o’quvchi matnni o’qish jarayonida “bilaman”, “yangi ma’lumot”, “tushunmadim” kabi belgilar yordamida o’z o’qishini nazorat qiladi. Bunday metodlar o’quvchini passiv tinglovchidan faol fikrlovchi shaxsga aylantiradi [6].

O’qish savodxonligi darslarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ijodiy topshiriqlarning imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Bugungi kunda o’quvchilar elektron hikoya tuzish, rasmlı slayd tayyorlash, asar qahramoni haqida “e-dosye” yaratish, ravon o’qish bo’yicha audio yoki video yozuv tayyorlash kabi topshiriqlarni bajarishlari mumkin. Bu esa ularning nafaqat ijodiy, balki texnik va axborot bilan ishlash ko’nikmalarini ham rivojlantiradi. O’qish savodxonligini rivojlantirishga oid pedagogik texnologiyalarda ham AKT vositalari o’quvchining mustaqil izlanishi, matnni tahlil qilishi va fikrini turli shakllarda ifodalashga yordam berishi ta’kidlanadi.

Ijodiy topshiriqlarni dars jarayonida qo’llashda o’qituvchi topshiriqning maqsadi, murakkablik darajasi va o’quvchilarning yosh imkoniyatlarini hisobga olishi lozim. Masalan, 1-sinf o’quvchilariga ko’proq rasm asosida gap tuzish, so’z aytish, ertak qahramonini tasvirlash kabi soddı topshiriqlar berilishi maqsadga muvofiq. 3–4-sinflarda esa matnga muqobil yakun yozish, qahramon nomidan maktub tuzish, matn asosida kichik sahna ko’rinishi tayyorlash kabi murakkabroq ijodiy topshiriqlardan foydalanish mumkin.



Ijodiy topshiriqlar o’quvchilarning shaxsiy sifatlarini ham rivojlantiradi. Bunday mashg’ulotlarda bola o’z fikrini aytishga, guruh oldida chiqish qilishga, mustaqil qaror qabul qilishga va ijodiy yondashishga odatlanadi. Natijada unda o’ziga ishonch, tashabbuskorlik, mas’uliyat va faollik shakllanadi. Bu esa boshlang’ich ta’limning asosiy vazifalaridan biri bo’lgan har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Ijodiy topshiriqlar muntazam qo’llanganda o’quvchilarning matnni tushunish darajasi, o’qish tezligi, so’z boyligi, mustaqil fikrlashi va kitobxonlikka qiziqishi oshadi. Ayniqsa, matnga estetik munosabat bildirish, qahramonlar xatti-harakatini baholash, voqealardan xulosa chiqarish kabi ko’nikmalar o’quvchining tafakkurini kengaytiradi. Shu jihatdan ijodiy topshiriqlar o’qish savodxonligi darslarida faqat qo’shimcha mashq emas, balki ta’lim samaradorligini oshiruvchi muhim metodik vosita hisoblanadi.

Biroq ijodiy topshiriqlarni qo’llashda ayrim metodik talablarga rioya qilish kerak. Birinchidan, topshiriq matn mazmuni bilan bevosita bog’liq bo’lishi lozim. Ikkinchidan, topshiriq barcha o’quvchilar uchun tushunarli va bajarish imkoniga ega bo’lishi zarur. Uchinchidan, ijodiy topshiriq faqat qiziqarli faoliyat sifatida emas, balki aniq ta’limiy maqsadga xizmat qilishi kerak. To’rtinchidan, o’qituvchi o’quvchilar javobini baholashda faqat grammatik to’g’rilikka emas, balki fikrning mustaqilligi, mazmuni va ifoda uslubiga ham e’tibor qaratishi maqsadga muvofiqdir.

Demak, boshlang’ich sinf o’qish savodxonligi darslarida ijodiy topshiriqlardan foydalanish o’quvchilarni darsga faol jalb etadi, ularning nutqini, tafakkurini, tasavvurini va muloqot ko’nikmalarini rivojlantiradi. O’qituvchi ijodiy topshiriqlarni matn mazmuni, sinf darajasi va dars maqsadiga mos holda tanlasa, o’qish darslari o’quvchilar uchun qiziqarli, samarali va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo’ladi.

Xulosa qilib aytganda, ijodiy topshiriqlar boshlang’ich sinf o’qish savodxonligi darslarida o’quvchilar faolligini oshirishning samarali vositalaridan biridir. Bunday topshiriqlar o’quvchilarning o’qishga bo’lgan qiziqishini kuchaytiradi, ularni mustaqil fikrlashga, matnni tahlil qilishga, obrazlarni tasavvur qilishga va o’z munosabatini bildirishga o’rgatadi.

Ijodiy yondashuv o’quvchilarning og’zaki va yozma nutqini, kommunikativ ko’nikmalarini, ijodiy tafakkurini va kitobxonlik madaniyatini rivojlantiradi. Ayniqsa, ijodiy topshiriqlarni klaster, rol o’ynash, INSERT, aqliy hujum kabi interfaol metodlar hamda AKT vositalari bilan uyg’unlashtirish dars samaradorligini oshiradi. Shu sababli boshlang’ich sinf o’qish darslarida ijodiy topshiriqlardan tizimli va maqsadli foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni. 23.09.2020-yildagi O’RQ-637-son.
2. Matchonov S., Bakiyeva H., G’ulomova X., Yo’ldosheva Sh., Xolboyeva G. Boshlang’ich sinflarda ona tili o’qitish metodikasi. Darslik. Toshkent. – 2021-yil.
3. Yo’ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: O’qituvchi, 2018.
4. Aydarova U.B. O’qish savodxonligi. 2-sinf uchun darslik. Toshkent: “Novda Edutainment”, 2023. -80 b.
5. G’oziyev E. Psixologiya. Toshkent: O’qituvchi, 2010.
6. Xoliqov A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.



7. Aydarova U.B., Azizova N.K., Toirova M.E. O‘qish savodxonligi. 3-sinf uchun darslik. II qism. Toshkent: “Novda Edutainment”, 2023. -80 b.
8. Gaynazarova, G. A., Matnazarova, K. O., & Parpiyev, O. O. (2023). Factors and methods of preparing students for professional activities in the conditions of individual training. *Academia Repository*, 4(12), 131-135.
9. Olimovich, P. O. (2023). RIVOJLANISH VOSITASI SIFATIDA TRIZ TEXNOLOGIYASINING XUSUSIYATLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 24(1), 17-20.
10. Mushtariy, O. (2023). Odiljon P. Boshlang ‘ich ta’lim tizimiga zamonaviy yondashuvlar. *qo ‘qon universiteti xabarnomasi*, 640-644.
11. G‘ulomjon filolog: NO, P. The Harmony Of Characters’ Speech And Psychological Portrayal In Nabijon Boqi’s “A Tale Of One Love”.
12. G‘ulomjon filolog: Khodjaev, S., & Abdupattaev, G. (2022). The Problem of Era and Hero in the Work of Murad Muhammad Dost. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 3(12), 77-81.